



BUGUNGI GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNI OMMAVIY  
MADANIYAT XURUJLARIDAN HIMOYALASH

Olimjonova Umida

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O'zbek Tili va Adabiyoti Universiteti akademik litseyi  
o'quvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ongi va tafakkurini o'zgartirishga qodir bo'lgan turli axborot xurujlarining, g'oyalarning tobora chuqurlashib borayotganligi va uni oldini olishga qaratilgan ba'zi masalalarga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, madaniyat, axborot, ijtimoiy turmush, submadaniyat, depressiya, modernizatsiya, ta'lim.

Hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida globallashuv jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, mafkuraviy ta'sir o'tkazish ko'lami jadal kengaymoqda. Bunday sharoitda har bir xalq o'z milliy manfaatlarini ta'minlashga, tarixiy negizlaridan uzoqlashib ketmaslik va o'zgaralar ta'siriga tushib qolmaslikka intiladi. Davlatlar global axborot maydonida o'z manfaatlarini himoya qilishi, turli axborot xurujlariga qarshi tura olishi esa yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi va global axborot makonida milliy chegaralarning o'z ahamiyatini yo'qotishi natijasida turli xalqlar hayotiga soya soluvchi, ularning turmushi, madaniyati va an'analariga zarar keltiruvchi omillar ta'siri kuchaymoqda. Ana shunday omillarning salmoqli qismi “ommaviy madaniyat” nomi bilan hayotimizga kirib kelmoqda. O'z mustaqil fikri, sog'lom dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmagan odamlar, ayniqsa, yoshlar turli ma'naviy tahdidlarning ta'siriga bardosh bera olmasligi ko'rinib qolmoqda. Mana shunday vaziyatda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalari tarqatish, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlarini, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Bugungi murakkab globallashuv davrida har bir shaxs axborot ta'siriga uchraydi. Bu axborot oqimlarining ma'lum qismi noqonuniy va ijtimoiy jihatdan salbiy mazmunga egadir. Butun jahon internet axborot tarmog'i, mobil aloqa tizimi, kompyuter o'yinlari, video va kino mahsulotlari orqali “ommaviy madaniyat” niqobi ostida milliy manfaatlarimiz, mafkuramiz, ma'naviy axloqiy qarashlarimizga yot zararli g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishlar kuzatilmoqda. “Ommaviy madaniyat” mahsulotlari yoshlardan chuqur fikr-mulohaza yuritishni talab etmaydi, aksincha, ularni har xil hayot tashvishi va muammolaridan “xalos” etadi, o'qishga, bilim olishga emas, balki bir marta beriladigan hayotda “yashab qolishga” chaqiradi. Mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etishini e'tiborga olsak, ularning asl maqsadlari nimaga qaratilgani ravshan bo'ladi.

“Ommaviy madaniyat”ni targ'ib qilayotgan g'arazli kuchlarga aslida hech qanday madaniyat va inson ma'naviyati, axloqiy qadriyatlarining keragi yo'q.



Ularning siyosiy maqsadlari mamlakatlarni o‘z izmiga solish, boylıklariga egalik qilish, odamlarning irodasini susaytirish va oxir-oqibatda erkinligidan judo qilishdir.

Amerikalik siyosatshunos Zigne Bjezinskiy o‘tgan asrning oxiridayoq taraqqiyotga ta‘sir etayotgan kuchlar, hodisa va jarayonlar to‘g‘risida to‘xtalib, madaniy ustunlik Amerika global kuch-qudratining muhim jihati sanalishiga e‘tiborni qaratadi. Ayrimlar o‘zining estetik qadriyatlarini haqida nimalarni o‘ylamasin, Amerika ommaviy madaniyati, ayniqsa, dunyo yoshlarini ohanrabo kabi o‘ziga tortadi. Amerikaning televizion dasturlari va filmlari jahon bozorining qariyb to‘rttdan uch qismini egallagan. Amerikaning ommabop musiqasi ham ustuvor mavqega ega, shuningdek, amerikaliklarning qiziqishlari, ovqatlanishdagi odatlari va hatto kiyinishiga butun dunyoda taqlid qiladilar, deb hisoblaydi. Bu bilan aniq maqsadlar, reja va dasturlar asosida amerikacha madaniyat gegemoniyasi targ‘ib qilinayotganini ta‘kidlaydi. Bu tendensiya hozirgi kungacha davom etib kelayotganini kuzatish mumkin.

Aslida, madaniyat inson bunyodkor faoliyatining ichki mazmunini tashkil etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, inson faoliyatining asosiy mazmuni o‘zini erkin, yaratuvchan ijodkor shaxs sifatida namoyon etish, insoniylik dunyosini yaratish va shu asosda olamni ham insoniylashtirishdan iboratdir. Shunday ekan, iste‘molchilik kayfiyatining o‘zagini tashkil etgan “ommaviy madaniyat” haqiqiy madaniyatning mohiyatiga zid va yotdir. U insonning ma‘naviy dunyosini buzadigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir.

“Ommaviy madaniyat” milliy madaniyatlarning kushandasi bo‘lib, u madaniy xilma-xillikni xushlamaydi, uning asl maqsadi – bu olamni bir xil rangda ko‘rish. Ommaviy madaniyat ssenariysining asosiy “muallifi” sanalgan AQSHda madaniyatlar uyg‘unligi orqali millatlar o‘rtasidagi tafovut “devori”ni yiqitish borasida to‘plangan boy tajriba shundan dalolat beradi. Garchi ommaviy madaniyat okean ortida yagona davlat shakllanishida qo‘l kelgan bo‘lsada, bugunga kelib uning G‘arbda yuz berayotgan axloqiy tanazzulning muqaddimasi ekani ham ayonlashdi. So‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida “ommaviy madaniyat” o‘sha jamiyatlarni sun‘iy, soxta ideallar bilan chalg‘itibgina qolmay, odamzot uchun muqaddas bo‘lgan tabiiy juftlikni ham inkor etdi, g‘ayriinsoniy axloq va munosabatlarni qonuniylashtirdi va buni, demokratiyaning oliy namunasi deya ko‘z-ko‘z qildi. Ommaviy madaniyatning shiddat bilan rivojlanishida tijorat qoidalari ham kuchli ta‘sir o‘tkazmoqda. Har qanday zamon va makonda barcha narsalardan foyda ko‘rishga tayyor dastyorlar topilishi uzoqni ko‘zlab zimdan ish ko‘ruvchi ommaviy madaniyatchilarning mushkulini oson qiladi, ishini jadallashtiradi. Bunday mol-dunyoga sig‘inuvchi dastyorlar faqat bugunni, yana ham aniqrog‘i hozirni ko‘radi va tan oladi.

Shuning uchun, o‘sib kelayotgan avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlarga, asl madaniyat durdonalariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda ommaviy madaniyatga xos ayrim ko‘rinishlarga tanqidiy munosabatni, aksilmadaniyatga, turli buzg‘unchi g‘oyalar va axborotlarga nisbatan g‘oyaviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida zamonaviy kadrlar tayyorlash bilan bog‘liq ma‘naviy-ma‘rifiy, ta‘lim-tarbiya ishlari ham mamlakatimizda bu yo‘nalishda olib borilayotgan tizimli jarayonlarda munosib o‘ringa ega bo‘lishida har birimiz, professor-o‘qituvchilardan boshlab – talabalargacha, o‘z hissalarini qo‘shib bora oladi, deb



ishonamiz. Bugungi globallashuv jarayonida insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi tubdan o'zgarib ketdi. Bu o'zgarishlar natijasida bir qator dolzarb ahamiyatli, ta'sir doirasi jahon hamjamiyatini qamrab olgan, bashariyatning kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotini belgilab berayotgan muammolar vujudga keldi. Bu muammolar insoniyatning global muammolari deb ataladi hamda ularning echimini topish yo'lida barcha davlatlarning kuch-qudrati, imkoniyat-harakatlari jamlanishi maqsadga muvofiq.

Global muammolardan tinchlikni saqlash va qurolsizlanish muammosi eng universal ahamiyatga ega, chunki bu muammo hal etilmasa, Yer yuzida hayot va sivilizatsiyaning kelajagi o'ta achinarli ahvolga kelishi muqarrar. Insoniyat tarixida, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, jami 14 mingdan ortiq urushlar ro'y bergan va ming afsuski, harbiy mojaro va ziddiyatlar sayyoramizning turli hududlarida hanuzgacha yuz bermoqda. Lekin, global darajada bu muammo jami 70 milliondan ziyod kishi qurbon bo'lgan ikkita jahon urushi bo'lib o'tgan XX asrda keskinlashdi.<sup>1</sup> Hozirgi vaqtda AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Pokiston jahon hamjamiyatining rasman tan olingan yadroviy qurolga ega davlatlari hisoblanadi. Dunyoning turli mintaqalarida urush va harbiy to'qnashuvlar sodir bo'lmoqda. Harbiy harakatlar va fuqarolik urushlari tufayli ayrim davlatlar gumanitar falokat vaziyatiga kelib qoldi. Bunga Suriya, Iroq, Liviya, Somali, Afg'oniston, Janubiy Sudan va boshqa davlatlarni misol tariqasida keltirilishi mumkin. Axborotlashgan jamiyatning shiddat bilan o'zgarib borishi natijasida «XX asrda globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o'zgartirib yubordi. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mafkuraning yo'qligi, geosiyosiy maqsadlarning o'zgargani esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytirdi. Bunday sharoitda o'z maqsadini aniq belgilab olgan, ehtiyoj va manfaatlarini yaxshi anglab etgan, o'z e'tiqodiga ega bo'lgan, bir so'z bilan aytganda o'z milliy g'oyasini shakllantirgan millatgina kelajagini saqlab qoladi va istiqbolini belgalaydi»<sup>2</sup>. Shunday millat sifatida shakllangan o'zbek xalqi o'zining asrlar osha yashab kelayotgan milliy g'oyasi asosida yoshlar dunyoqarashini ilg'or texnologiyalar bilan boyitish, turli ta'sirlar negizida o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni e'zozlash va estetik madaniyatni kelajakka o'z holicha etkazishga doimo tayyordir. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Globallashuv jarayonida ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari keng yoritib berildi. Sh.M. Mirziyoyevning asarlari metodologik manba bo'lib belgilandi. Bugungi kunga kelib globallashuv jarayonida dunyoda g'oyaviy, mafkuraviy kurash ya'ni dunyoni g'oyaviy jihatdan bo'lib olishga bo'lgan urinish kuchayib bormoqda. Albatta, bunday vaziyatda mustaqilligimizni mustahkamlash, uning barqarorligini, farovonligini, tinchligini va kelajagini ta'minlash har birimizning yuksak burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev globallashuv sharoitida ma'naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan: "Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorism, giyovandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi",<sup>3</sup> deb alohida ta'kidlaydi. Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-ahloqiy



negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Shu boisdan O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi Harakatlar strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad- muddaolarini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish, globallashuv jarayonining asl mohiyat-mazmunini jamiyat estetik madaniyatidagi rolini aniq va ravshan qilib olish jamiyatimiz a'zolariga etkazib berish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlardan xalqni, xususan o'sib kelayotgan yoshlarni asrash, ularning qalbiga ezgulik g'oyalarini singdirish jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bug'inlarida ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etilmoqda. Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog'liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'z fikrlarini bildirar ekan, "Yangi tahdidlar, jumladan, «ommaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir"<sup>4</sup>, - deb ta'kidlaydilar. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot jarayonida milliy uyg'onish davrini boshdan kechirayotganligiga, madaniy merosimiz, milliy urf-odat, qadriyatlarimizni tiklayotgan bir paytda dunyoda ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi ziddiyat kuchayib borayotganligiga guvoh bo'layapmiz. Har qanday mafkura xalqning ma'naviy ruhiy ehtiyojlarini milliy an'analari va turmush tarzini hisobga olgan taqdirdagina yashovchan, ta'sirchan bo'ladi. Shu o'rinda globallashuv jarayonida yoshlarning yangicha estetik madaniyatni shakllantirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish vazifasi milliy mafkura asosida bizning diqqat markazimizda turibdi. Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma'naviy salohiyat etakchi o'ringa chiqdi. Insoniyat taraqqiyoti turli tahdidlar ta'siriga tushib qoldi, xavfsizlik va barqarorligiga rahna solishga, hatto uning hayotini izdan chiqarishga qaratilgan tahdidlar kundan - kunga kuchayib bormoqda endi qurol-yaroqlar emas, balki "fikrga qarshi faqat fikr, g'oyaga qarshi faqat g'oya" bilan kurashib olg'a borish mumkin. Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda. Hozirgi vaqtda mafkuraviy vositalar orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda.<sup>5</sup> Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo'l urayotganlar o'z yovuz maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini o'zlariga ma'qul bo'lgan g'oya bilan egallashlari, ya'ni buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlari xalqqa ayon bo'lib bormoqda. Ushbu tahdidlar



dunyoning turli buzg'unchi kuchlari tamonidan shunday ustakorlik bilan tarqatilmoqdaki, u o'zining jozibali tasir kuchi orqali ko'plab insonlarni kundan - kunga o'z domiga tortib bormoqda. "Tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashni chigallashtiruvchi hamda tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, emirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish mumkin. Albatta bunday buzg'unchi g'oyalar xamma joyda ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi bunga faqat o'zimizga ishonch bilan bir yoqadan bosh chiqarsak bu buzg'unchi g'oyaga qarshi kurashishimiz mamlakatimiz taraqqiyotini yanada rivojlanishiga xissa qo'shgan bo'lamiz.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasida inson qalbi va ongiga ta'sir o'tkazuvchi, turli xil vositalar bilan kurash olib boruvchi mafkuraviy poligonlar faoliyati tobora yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida jahonda g'oyat murakkab va tahlikali jarayon kechmoqda. Bular dunyoning siyosiy, mafkuraviy manzarasidagi o'zgarishlar, taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilishi va bu taraqqiyotga g'ov bo'ladigan demokratik rivojlanishni izdan chikaradigan, jamiyat barqarorligiga rahnasoladigan g'oyaviy-mafkuraviy to'siqlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy (873-950), inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deydi. Ana shu jarayonda insonda fazilatlarni kamol toptirish haqida ta'kidlab quyidagi fikrlarni ilgari suradi, "Inson fazilatlar bilan kamolotga etadi va kamolotga etgan odam baxtli hisoblanadi" Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda asosiy maqsadimiz jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ekan, birinchi navbatda, milliy g'oyani fuqarolar ongi va qalbiga chuqur singdirishga erishishimiz kerak. Aholida, ayniqsa yosh avlodda sog'lom e'tiqodni shakllantirish, ular orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un ravishda targ'ib etish ham muhim ahamiyatga ega. Umuman, fuqarolarning bilimi va tafakkurini yanada oshirish, huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishlarini izchil amalga oshirib boraversak, har qanday tahdidlar bizga xavf sololmaydi. Shu bois ham hozirgi vaqtda yurtimizdan etishib chiqqan buyuk alloma ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish jarayonida nafaqat ilmiy maqsadlar, balki ma'naviy tarbiya manfaatlari ustuvorligidan ham kelib chiqish zarurdir. Shunday darajaga erishish lozimki, yoshlarimiz ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni o'rganish bilan bir qatorda ularni jahon miqyosida targ'ib qilishda ham faol ishtirok etsinlar. Buning natijasida yoshlarimiz qalbida cheksiz fahr va g'urur xissi yanada mustaxkamlanadi. Ma'lumki, o'z Vatani bilan faxrlanish tuyg'usi inson qalbida yuksak ma'naviyatni shakllanishida keng yo'l ochib beradi. Bugungi kunga kelib anglab turibmizki, ularga qarshi kurashish har birimizning dolzarb vazifamiz ekan. Chunki, mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda. Keyingi paytlarda internet bilan bog'lik buzg'unchiliklar, global tarmokdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda. G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik



bilan foydalanmoqda. O'zlarini «yaqin do'st» yoki «hidoyatga chorlovchi» sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yuq, faqatgina to'da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog'orasiga uynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so'zlarni gapirib, g'o'r yoshlarni yo'ldan urib, oxir-oqibatda, razolat qurboniga aylantirmoqda. Islom ta'limoti buzg'unchilikni, odamlar qalbiga vahima, dushmanlik va fitna urug'larini sochishni qattiq qoralaydi. Ma'lumki, so'nggi yillarda dinni o'zlariga niqob qilib olgan oqimlar, toifalar paydo bo'ldi. Ular g'arazli maqsadlari yo'lida jamiyatda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Globallashuv jarayonida kishilarni, ayniqsa yoshlarni turli xil ko'rinishdagi mafkuraviy xurujlar ta'siridan asrashda bir qator quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Jumladan, mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash. Yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning ma'naviy ahloqiy tarbiyasini shakllantirish, yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, el-yurt sha'nini ardoqlash kabi ulug'vor fazilatlarini kamol toptirishda oila-mahalla-ta'lim muassasasi hamkorligi asosida ish tashkil etish.<sup>9</sup> Bugungi axborotlar jadal kechayotgan bir vaqtda axborot xurujlari asiriga aylanmaslik. Demak, axborot kurashi avj olgan XXI asrda yoshlarni mafkuraviy xurujlardan himoya etishda ma'naviy-marifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini oshirish, hayotimizda sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar haqidagi chuqur tahliliy ma'lumotlari yosh avlodga etkazish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan sananing 30 yilligi munosabati bilan 2019 yil 21 oktyabr kuni bo'lib o'tgan tantanali yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" g'oyasini hayotga to'laqonli tadbiiq etilishida globallashuv jarayonida o'zbek tili va milliy ma'naviyatimizga bo'layotgan tahdidlarga qarshi tura olish zarurati to'g'ri sida alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas. Bugungi kunda "globallashuv" so'zi eng ko'p ishlatiladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, ushbu tushuncha inson va jamiyat hayoti rivojining hozirgi davridagi muhim xususiyatlarni, jumladan, tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, kishilik sivilizatsiyasi bugungi kungacha boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir voqelikni o'zida mujassam etadi.

Globallashuv insoniyat tarixi qadar uzoq tarixga ega bo'lib, tarixning barcha formatsiyalari yoki bosqichlarida uning elementlari kuzatiladi. Biroq, o'tgan XX asrning ikkinchi yarmida bu jarayon sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, G'arb va Sharq madaniyatida tafovutlar ko'lami kengaydi. Telegraf, telefon aloqalari, televizion axborotlar uzatish ko'laminin g kengayishi, axborot uzatish erkinligining paydo bo'lishi ijtimoiy turmushda o'zining zararli oqibatlariga olib keluvchi axborotlarning paydo bo'lishidagi asosiy vositalar sifatida maydonga chiqdi. Bular oqibatida millatlar va millatlarning turmush tarzi hamda madaniyatlarida ham tafovutlar o'sib bordi. Ayniqsa, o'tgan asrning 80-yillarida "Rok" va "Pop" musiqa guruhlari, 90-yillarda "Roker" (mototsiklchilar)



va "Metalistlar", asr oxirida yoki 2000-yillarda "Taqirboshlar" kabi fashistik guruhlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu dunyoning turli mintaqalarida ayovsiz tajovuzkorlikga, narkomaniya, suitsid, ya'ni o'z joniga qasd qilish holatlarining o'sishiga, ularda egoistik va gedonistik tafakkur hamda intilishlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Gedonizm: (grekcha: hedone-lazzatlanish, aysh-ishrat) hayotdan maksimal darajada lazzatlanishga qaratilgan individual harakat bo'lib, uning belgilari qadimgi grek kirenaik maktablarida namoyon bo'lgan.

Gedonizmni nemis faylasufi Immanuil Kant ruhiyatdagi asosiy o'zgarish emasligini qayd etadi va uni inkor qiladi. Utilitarizm esa, uni depressiyalardan chalg'ish uchun lazzatlanish sifatida baholaydi. Xulosa qilib aytganda, gedonizm axloqiy egoizm uchun zamin yaratadi. XXI asrga kelib esa, emo-sub madaniyati (ing. emo: emotionalemotsional) yoshlar sub madaniyati, emo-kidlar (kid-yosh yigit) yoki emogyorl (ing. girl-qiz) lar paydo bo'ldi. Masalan, 2000 - yilda Rossiyada emosub madaniyat g'arb pop (musiqqa) madaniyati ta'sirida paydo bo'lib, uning asosiy motivi o'z joniga qasd qilishga qaratiladi. Shu boisdan bu masala

Rossiyada 2008 - yil 2 - iyunda Davlat dumasida davlat siyosati konsepsiyasiga zid targ'ibot bilan bog'liq muammo sifatida ko'tarilgan edi. Yoshlarning kompyuter va boshqa axborot tarqatish vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirish va bunda o'quvchining axborot tanlashida o'qituvchi eng birinchi ko'makchi bo'lishi lozim. Ularga elektron o'quv darsliklari bo'yicha etarli ta'minotni yaratish va o'quv-ta'lim tizimini modernizatsiya qilish barobarida texnik uskunalarga dasturiy xizmat qilishni rivojlantirish shart bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchilarga doimiy metodik xizmat ko'rsatib borish tizimini modernizatsiya qilish asosida ularni respublikada milliy alifbo va tildagi dasturlar bilan bosqichma-bosqich ta'minlab borish zarur bo'ladi. Chunki, bu dasturlar o'z navbatida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ustoz-shogird ta'lim olish usulining barqarorlashuvini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarning dars mashg'ulotlari davomida yoki darsdan bo'sh vaqtlarida ularni internet tarmog'idan so'nggi axborotlarni olishlariga to'g'ri yo'naltirishda nafaqat informatika, balki boshqa barcha fanlar o'qituvchilarning ham ishtiroki ta'minlash zarur. Jumladan, adabiyot, tarix, geografiya, biologiya, kimyo, fizika fanlari o'qituvchilarining o'zlari dars mashg'ulotlari davomida internetinternet tarmog'idagi saytlardan o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun foydalanishlari, har darsda ular tomonidan o'quvchilarga saytlar tavsiya etilib, ularning nomlari va manzillari yozdirilib borilishi, ovozli multimediy va animatsiyali darslar taqdimotlarini o'tkazishda va o'quvchining bilimni boyituvchi va mustahkamlovchi axborotlar bilan ta'minlashda kollegial usuldan foydalanishlari lozim.

Kollegial usul hozirgi maktab, kollej o'qituvchilarining mustaqil malaka oshirishlarini ta'minlaydi. O'qituvchilarning o'zaro yoki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bilim berish va o'zlashtirishdagi maqsadlarini umumlashtiradi.

O'qituvchilar malakasini oshirishda masofaviy qo'shimcha ta'limning rolini kuchaytirish orqali ular o'z ustida davomli ishlashlarini rag'batlantirish tizimini kuchaytirish zaruriyati yuzaga keladi. Jumladan bugungi kunda maktab direktori



fondi, tadbirkorlik va homiylik moliya resurslari hisobidan ustama rag'batlantirish respublikada keng yo'lga qo'yilgan. Biroq, o'quvchilarni zamonaviy bilimlar va axborotlar bilan ta'minlovchi o'qituvchilar toifasini oshirish kriteriyalarini qayta ishlab chiqish va rag'batlantirish ishlarining nazorat tizimini yaratish zarur. Masalan, bugungi maktab o'quvchilari ertaga kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, oliy o'quv yurtlari talabalariga aylanadi, kelgusida iqtisodiyot va ijtimoiy turmushning turli sohalarida qaltisliklar hamda yuzaga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolardan chiqib keta olishda immunitetni tarbiyalash lozim bo'ladi.

Talaba yoshlarning ijobiy ma'lumotlarni o'zlashtirishlarida nafaqat o'qituvchi, balki birinchi navbatda ota-onalar va jamoatchilikning ishtiroki ham muhimdir. Shuningdek, o'qituvchilarning ta'lim va tarbiyasida maktab-oilamahalla tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarning darsdan keyingi bo'sh vaqtini nazorat qilish, fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda jamoaviy ta'sir va kollegial usullaridan keng foydalanilgan holda, suhbatlar, kechalar uyushtirish orqali namunaviy bilimli va yaxshi xulqli o'quvchilarga boshqa o'quvchilarning ergashishi va ibrat namunalarini o'zlashtirish uchun zamin yaratish, bir so'z bilan aytganda ibrat va yaxshi xulqli bolalarga biriktirish usulidan keng foydalanish lozim bo'ladi. Yoshlarni milliy axloqqa zid axborotlardan himoyalashdagi hamkorlik ko'lamida maktab, oila va jamoatchilik etakchilik qiladi. Maktabda maktab ma'naviyat va ma'rifat xodimlari, Yoshlar ittifoqi etakchilari va fan o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning etakchi kuchlaridir.

Ota-onalar qo'mitasi maktab va oilani, mahalla, oila va jamoatchilikni bog'lab turadi. Yoshlarning axborot olishlarida ommaviy muammolar yuzaga kelganda tadbirkorlar palatasi, ichki ishlar organlari va prokuratura xodimlari aralashuvida muammolar bartaraf etilishiga ko'maklashiladi. Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlami, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda.

Mafkuraviy tahdidlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rganish, murakkab va tahlikali hayotning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida biryoqlama va soxta tasavvurlar shakllanmasligiga alohida e'tibor berish lozim. Buning uchun insonlarda sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom, o'z kuchiga va ertangi kunga ishonch tuyg'ularini yanada kamol toptirish zarur. Boshqalarning tasavvuriga muvofiq, globallashtirish iqtisodiy sohada emas, balki diniy sohada katta xavf-xatar tayyorlamoqda, chunki, globalizm va axborot dunyoviy xarakterga ega bo'lgan bir paytda xudosizlik targ'iboti bilan uyg'unlashtiriladi. Yana boshqalarning qarashlarida globallashtirish millatga va milliy o'ziga xoslikka putur etkazadi.

Madaniy, shu jumladan diniy qadriyatlar, turmush tarzi ham xavf ostida qoladi. Bunday yondashuvga moyillik bildirayotgan fan va siyosat arboblari uchun madaniy o'ziga xoslikni saqlashga intilish asosiy maqsaddir. Chunki hozirda internet tarmog'idan foydalanadiganlarning asosiy qismini yoshlar tashkil qilmoqda. Yoshlar esa millat va davlat kelajagidir. Aytish joizki, yoshlarning globallashtirishga nisbatan sog'lom dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqilishini davr taqozo qiladi. Barchamizga ayon





bo'lishi kerakki, qaerda beparvolik va loqaydlik xukm sursa, usha erda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi va aksincha qaerda xushyorlik va jonkuyarlik xukm sursa, u erda ma'naviyat qudratli kuchga aylanadi.<sup>13</sup> Ayniqsa bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyatga egadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Kant I. Kritika chistogo razuma. -M.: ACT, Neoclassic, 2022.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -T.: O'zbekiston, 2017.